

UDK 378.016

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT TIZIMI XUSUSIYATLARI

Murtazayeva U.I.¹

¹ Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston
murtazayeva1982@yandex.ru

Annotatsiya. Maqolada bugungi kundagi ta'lim tizimining asosiy vazifasiga, kredit o'lchovi tizimini amaliyotga tatbiq etilishiga, e'tibor qaratilgan. O'qitishning kredit tizimi va chiziqli tizimi o'rtasidagi farqlar, kredit tizimini joriy etishning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, afzalliklari va muammolari, an'anaviy va kredit o'qitish tizimlaridagi nazorat shakllari o'rganildi. Shuningdek, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilinishi asosida tadqiqotimizning asosiy g'oyalarini ajratib olish imkoni paydo bo'ldi.

Kalit so'zlar: ta'lim, kredit ta'lim tizimi, mutaxassis, kredit soati, ECTS tizimi, ball-reytingli va harfli baholash.

I. KIRISH

Buyuk ajdodlarni voyaga keltirgan bu ona zaminimizda ta'lim va tarbiyaga azaldan katta e'tibor berib kelingan. Buning isboti sifatida Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, XIX asr ma'rifat-parvarlari Zokirjon Furqat, Uvaysiy, Anbar Otin, qolaversa, XX asr boshi jadidchilik harakati namoyandalari bo'lgan Abdulla Avloniy, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi qator buyuk allomalarni keltirishimiz mumkin. Bizning ziyolilarimiz barcha davrlarda ham yangilikka intilganlar va bu holat hozirgi ta'lim jarayonida ham o'z tasdig'ini topmoqda [1].

Har bir davlatning yuksalishida ta'lim tizimining o'rni beqiyosligini tan olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzoladi [2], unda mamlakatimizda oliy ta'limni har tomonlama isloh qilishning asosiy

yo'nalishlari belgilab berildi. Shuningdek, ushbu hujjatda va davlatning vakolatli organlariga yo'llagan topshiriqlarda O'zbekiston rahbari quyidagi asosiy vazifalarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlagan: zarur kompetensiyalarga ega bo'ladigan, yuksak ma'naviy-axloqiy tamoyillar va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan bo'lajak mutaxassislarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish; oliy ta'limni modernizatsiya qilish; ta'limning eng yangi yondashuvlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab o'tdi.

II. ASOSIY QISM

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times

Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish va oliy ta’lim – muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish belgilab berildi.

Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o‘quv yilining o‘zida 33 ta oliy ta’lim dargohini kredit-modul tizimiga o‘tkazish ko‘rsatib o‘tildi.



1-rasm. O‘zbekiston OTMlarining oxirgi 4 yilda kredit-modul tizimiga o‘tish dinamikasi

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifasi dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga moslashuvchan, noan’anaviy fikrlaydigan va o‘z vaqtida munosib yechim topa oladigan mutaxassislarini tayyorlashdan iborat. Shuning uchun talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalanish kerak [3].

Kredit tushunchasi ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo‘lib, o‘quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish va talabani haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta’limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot “kredit soati” tushunchasini iste’molga kiritadi.

Shunday qilib, 1870-1880 yillarda kredit soatlari bilan o‘lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o‘qish va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish talabalariga o‘quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta’lim texnologiyalarini – takomillash-tirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Bugungi kunda mazkur kredit o‘lchovi tizimini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha to‘rtta model keng tarqalgan. Bular Amerika qo‘shma shtatlarining kredit tizimi (USCS) va Yevropa mamlakatlari kredit tizimi (ECTS); Osiyo - Tinch okeani mamlakatlari kredit tizimi (UCTS); Buyuk Britaniyaning kredit tizimi (CATS).

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimiz Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi kredit

tizimini joriy etishda Yevropaning ECTS tizimidan foydalanishga ustuvorlik qaratyapti. Shu bois uning afzal jihatlari, qulayliklari, yutuq va kamchiliklari haqida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Boloniya deklaratsiyasining eng muhim jihatlardan biri oliy ta'lim muassasalarining yagona "kredit tizimi"dan foydalanish (ECTS)ga asoslanadi. Kredit yoki kredit birligi – o'quv rejasida hisobga olingan har qanday o'quv faoliyatining qiymat ko'rsatkichi hisoblanadi.

ECTS tizimi Yevropa va umuman, Boloniya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari talabalariga katta afzalliklarni taqdim etadi.

Masalan, talaba ta'lim olayotgan universitetida egallagan akademik bilimlarini shu tizimga a'zo mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida tan olinishini, ya'ni o'ziga xos "konvertatsiyasi"ni kafolatlaydi. Shu bilan birga, mazkur tizim a'zolariga talabalarni boshqa OTMga o'qishini tiklash, ko'chirish va tugatish imkoniyatini beradi.

Kredit ta'lim tizimiga o'tish mutaxassislarni mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq tarzda tayyorlash imkonini beradi. U belgilovchi tashkiliy-uslubiy hujjatlar tizimini ishlab chiqish jarayonidan boshlanib, quyidagilarni aniqlashtirish imkonini beradi:

- ta'lim jarayonining maqsad va vazifalari;
- kreditlardan foydalangan holda o'quv jarayonini qurish tamoyillari (o'quv dasturlari);
- talabalarni attestatsiyadan o'tkazishning me'yoriy usullari (o'quv jarayoni reglamenti);
- o'qituvchilarning o'quv yuklamasini hisoblash usullari [4].

Ma'lumki, bizda axborot manbai va turli xildagi xalqaro ma'lumotlar bazalariga kirish, ulardan foydalanish ma'lum darajada cheklanib qolgan edi. Oqibatda oliy ta'limda professor-o'qituvchilarning asosiy diqqati axborotni qidirib topish, uni o'zlashtirish hamda dastlabki qayta ishlagandan so'ng talabalarga tarqatishga qaratildi. Ya'ni o'qituvchilar shunchaki axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi sub'ekt edi, xolos.

Bunda talaba o'quv jarayonining ob'ekti sifatida axborotni qabul qiluvchi vazifasini bajarar, asosiy vaqtini auditoriyada ma'ruza mashg'ulotlarini tinglashga sarflar edi. Bugungi kunga kelib esa axborotlar olamidan bahramand bo'lishning tezlashgani, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani, globallashuv jarayonlari jadallashgani bois talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish masalasi kun tartibiga ko'tarildi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar o'quv rejalari esa mehnat bozori talabi bilan bog'lanmagan fanlar bilan to'ldiriladi, asosan, professor-o'qituvchini ish bilan ta'minlash, unga auditoriya soatini chiqarib berish prinsipi nuqtai nazaridan, shuningdek, kafedra mudirlarining o'zaro kelishgan holda fanlarni taqsimlash asosida shakllantiriladi edi.

Talabaga fanlarni hamda professor-o'qituvchilarni tanlash u yoqda tursin, zerikarli bo'lgan mashg'ulotlardan voz kechib, kutubxonada o'qib-o'rganishiga ham imkon berilmas edi. Talabani dars mashg'ulotlarini qoldirishiga jiddiy talafot sifatida qaralib, bir semestrda 12 soatdan oshsa ogohlantirish, 36 soatdan oshsa xayfsan va 74 soatdan oshsa talabalar safidan chiqarishgacha borilardi [5].

Xullas, an'anaviy tizimda talaba kursdan qanday bilimlarni egallashi, professor-o'qituvchining dars berish strategiyasi, topshiriqlar va ularning muddatlari, yo'nalish profili, fanlarning qisqacha mazmuni bo'yicha materiallar batafsil taqdim etilmasdi. OTMda saqlanadigan rasmiy hujjat sifatida o'quv ishchi dastur ko'rinishida kursning mazmunini yoritishga qaratilgan.

Kredit tizimiga o'tgan rivojlangan xorijiy davlatlarning barcha OTMda ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar to'g'risidagi hamma ma'lumotlar, xususan, o'quv rejasida aks etgan fanlarning qisqacha sillabusi (fanning identifikatsiyasi, professor-o'qituvchi

haqida ma'lumot, dars tavsifi, fanning maqsadi, o'rganish natijalari, o'qitish metodikasi, fanning rejalari, adabiyotlar, baholash metodikasi), fanlar kesimida dars mashg'ulotlarini olib boradigan professor-o'qituvchilar hamda ularning erishgan yutuqlari, mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan qisqacha talablar, ya'ni qanday nazariy, amaliy bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlar universitetlarning rasmiy veb-saytida berilgan. Ushbu veb-saytlardan foydalanish talabalarning o'quv-tadqiqot kompetensiyasining o'sishiga xizmat qiladi.

O'qitishning kredit tizimi va chiziqli tizimi o'rtasida muayyan farqlar mavjud:

1-jadval.

Kredit tizimi va chiziqli tizimi o'rtasidagi farqlar

O'qitishning kredit tizimi	O'qitishning chiziqli tizimi
Ilmiy-rivojlantiruvchi ishlar	Yozma ishlar
Ball-reytingli va harfli baholash	An'anaviy baholash
Kompetensiyalarni baholash	Bilimlarni baholash
Hamkorlikka o'tish	Raqobat
Baholar - bilim ko'rsatkichidir	Baholar - zaruriy ko'rsatkichdir
Kompetentsiyalarni o'zlashtirish darajasi Tushunish, sintez, tahlil qilish jarayoni	Yakuniy jamlangan baholash

Tadqiqotchilarning fikrini inobatga olgan holda, kredit tizimini joriy etishning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, afzalliklari va muammolari mavjud (2-jadval).

Hayotning zamonaviy sur'atlariga muvofiq, shaxsni jamiyatning tez va keskin o'zgarishlariga muvaffaqiyatli moslashish imkoniyatini beradigan qo'ppirrali, ko'p bosqichli va ko'p vektorli tayyorgarlik zarur.

Innovatsion paradigma sharoitida mustaqil o'rganish mustaqillilik tamoyi-

liga va shaxsning ta'lim jarayonidagi yetakchilik roliga asoslanadi. Shuning uchun o'qitishning kredit texnologiyasi sharoitida texnik va kasbiy ta'lim tizimning hozirgi bosqichdagi asosiy vazifasi o'quvchilarni ijodiy, innovatsiyalarga va tashabbuskorlikka qodir qilib tayyorlashdan iborat.

Bugungi kunda ta'limning kredit tizimi elementlari oliy ta'lim muassasalarida faol qo'llanilmoqda[9].

2-jadval.

Kredit tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va muammolari

O'ziga xos xususiyatlar	Afzalliklar	Muammolar
<p>1. O'qitishning kredit tizimi bo'yicha haftalik yuklama 45 soatni, chiziqli tizim bo'yicha haftalik yuklama esa 36 soatni tashkil etadi.</p> <p>2. O'quvchilarda fanlarni o'rganishga ijodiy yondashish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini, tanlangan kasbiga qiziqishni rivojlantirish imkonini beruvchi yakka (individual) tartibda o'qish uchun qo'shimcha vaqt ajratish;</p> <p>3. Talabaga o'quv rejasida berilgan ayrim fanlarni (tanlov fanlardan) erkin tanlash imkonini beradi;</p> <p>4. Fanlarni tanlash bo'yicha edvayzer va tyutor (maslahatchi) lavozimini joriy etish;</p> <p>5. Har bir talabanning shaxsiy o'quv dasturlarini shakllantirishda, ya'ni butun o'qish davri uchun ta'lim yo'nalishini ularning imkoniyatlari va qiziqishlariga muvofiq aniqlashda shaxsiy ishtiroki [6].</p>	<p>1. Har bir talaba uchun individual o'quv rejasining mavjudligi, bu ularning ta'lim trayektoriyalarini mustaqil ravishda rejalashtirish imkonini beradi;</p> <p>2. Rag'batlantiruvchi yozgi semester, fan bo'yicha qarzdorliklarni bartaraf etish uchun talabalarga qo'shimcha vaqt beriladi;</p> <p>3. Xalqaro hamkorlik: o'qitishning kredit texnologiyasi talabalarga har qanday xalqaro ta'lim muassasasida malaka oshirish yoki o'qishni davom ettirish imkoniyatini beradi;</p> <p>4. Amaliy kreditlarni hisobga olinishi: bunda talabalar ma'lum vaqtda o'qishni to'xtatadi, amaliy tajriba (ishlab chiqarish kreditlari) to'plaganidan so'ng o'qishni davom ettirish imkoniyati beriladi, hamda u nazariy ta'lim kabi hisobga olinadi;</p> <p>5. Tanaffusdan keyin ta'limni davom ettirish imkoniyati: bunda talaba egiluvchan tanlov tizimidan foydalanib, fanlarni va o'zi istagan o'qituvchining ma'ruzalarida qatnashishda tanlash huquqi beriladi. Bunda, odatda, talabalar turli ishlab chiqarish vazifalarni hal qila oladigan kompetentli va ko'p qirrali bo'lib yetishganliklari sababli ish beruvchilar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilinadi;</p> <p>6. Talabalar uchun tabaqalashtirilgan yondashuvning mavjudligi, bu bakalavr darajasini muddatidan oldin olish imkoniyatidir;</p> <p>7. O'qituvchilar uchun raqobat muhitini yaratish, ularga doimiy ijodiy izlanish va ilmiy-pedagogik saviyaning o'sishi yo'nalishidagi ishlarni jadallashtirishga imkon berish [7].</p>	<p>1. Pedagogik tarkibning hamda o'quv jarayonini tartibga soluvchi tuzilmaviy tarkibning ish bilan haddan tashqari yuklanganligi, negaki an'anaviy ta'lim va kredit ta'lim tizimida o'qitish parallel ravishda amalga oshiriladi;</p> <p>2. O'qituvchining mashg'ulotlarga o'quv-uslubiy va amaliy tayyorgarligining ortishi, bunda har bir o'qituvchi tarqatma materiallar, sillabuslar va uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash zarurati paydo bo'ladi, bu esa akademik soatning 10 daqiqa oshishiga olib keladi;</p> <p>3. O'qitishning kredit texnologiyasini joriy etish uchun mazkur o'qitish texnologiyasining barcha jihatlarini aks ettiradigan me'yoriy-huquqiy bazani yaratish lozim [8].</p>

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallari AKT sohasida kasb ta'limi yo'nalishi talabalari o'rtasida so'rovnomalar olib borilganda, quyidagicha natijalarga erishilganligi ko'rdi:



2- rasm. An'anaviy va kredit o'qitish tizimlaridagi nazorat shakllari

Kredit tizimining eng asosiy xususiyati talabanning o'z-o'zi bilan ishlashi va doimiy uzluksiz tajriba hosil qilib borishi hisoblanadi. Buning uchun talabanning nazoratchi ishtirokisiz ilm va tajriba hosil qilishini ta'minlashdir. Tizimning asosiy vazifasi ham shu hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish sharoitida bitiruvchilarga tahlil qilish qobiliyatlarini malakaviy ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirish imkoniyatini beradigan ko'nikmalar o'rgatiladi. Natijada ta'lim sifatini baholash tizimida o'zgarishlarni talab qiladi, bu esa mutaxassisning ijodiy (kreativ) malakasi darajasini aniqlashga yordam beradi.

O'qitishning kredit tizimi sharoitida mavjud barcha iqtisodiy konsepsiyalarni barcha tafsilotlar bilan tavsiflashga hojat

yo'q. Sababi o'qitishning kredit tizimidagi ishchi o'quv rejaning tuzilishida talabalarning mustaqil ishlariga (TMI) yetarlicha vaqt ajratiladi. O'quv materialini quyidagicha taqsimlash mumkin: talabalarning malaka darajasida o'rganishi kerak bo'lgan ikkinchi darajali masalalari auditoriyadan tashqari TMIda o'z aksini topishi lozim. Bundan tashqari, seminar va ma'ruzalar oldidan talabalarga mustaqil ishlarni bajarish uchun o'qituvchi yo'naltiruvchi maslahatlar o'tkaziladi. Bunday sharoitda har xil turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ishlarni tashkil etish shakllari o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati va usullarini aniq belgilash kerak [10].

Binobarin, o'qitishning kredit tizimi talabadan mustaqil ishlash bo'yicha malaka, ichki intizom va o'qish hamda o'rganish istagi mavjud bo'lishini nazarda tutadi [11].

O'qitishning kredit tizimi sharoitida ma'ruza mashg'ulotlari talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish vositasiga aylanadi. O'qitishning asosiy vazifasi faqat turli nazariyalarni o'rgatishni emas, balkim voqelikni bilish vositasiga aylantirishdan iborat bo'lib, bu ma'ruza o'qish uslubiyotining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Mashg'ulotlarni o'tkazish uslubiyotda barcha talabalarni nafaqat o'quv-uslubiy majmualar (Syllabus) bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi, shu bilan birga ularning mazmuni ham muhim ahamiyatga egadir.

O'qitishning kredit tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ishlari fanning har bir mavzusini o'rganishning asosiy shakli hisoblanib, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari muayyan nazariy tushunchalarni chuqur tushunish imkonini beradi

va mustaqil ishlarni to'ldirishga mo'ljallangan [12].

O'quv-uslubiy majmua (Syllabus) mazmuni ana shu talablarga javob berishi kerak. Ma'ruza matnlari, seminar mashg'ulotlari rejalari, ular bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar bir-birini mazmunini to'ldirib, fanning mantiqiyiligini ta'minlaydi. Talabalarning auditoriyadan tashqari bajaradigan mustaqil ishlari (TMI) va o'qituvchi rahbarligi ostida bajaradigan mustaqil ishlarni (O'RMI) bajarish uchun beriladigan topshiriqlar ularni mustaqil bilim izlash va unga ijodiy yondashuvni faollashtiradi [13].

O'qitishning kredit tizimi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish uslubiyotida talabalarning individual qobiliyatlarini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratilishi uning o'ziga xos xususiyat ekanligini ko'rsatadi. Mashg'ulotlarda interfaol usullaridan foydalanish o'qituvchiga nafaqat bilimlarni shakllantirish jarayonini tahlil qilish va nazorat qilishni, balkim talabalarning individual ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish uchun sharoit yaratish imkonini beradi [14].

III. XULOSA

Bundan xulosa qilishimiz mumkin bo'ladiki, ta'lim jarayonining samaradorligi nafaqat o'qituvchining nazariy va metodik saviyasiga, balkim talabaning o'qishga tayyorligi va o'rganish xohishiga ham bog'liq. O'qitishning kredit tizimi sharoitida zarur shartlardan biri bu o'qituvchi va talabaning ijodiy hamkorlikka intellektual va psixologik tayyorgarligidir. Kredit tizimiga o'tishda ma'lum bir muammolarga ham duch kelishimiz tayin. Bular quyidagilar:

– har qanday xalqaro tajribani ko'rkona, o'z qadriyatlarimizni hisobga olmasdan turib, to'g'ridan-to'g'ri tadbiq

etish, uning har bir elementini chuqur tahlil qilmasdan, ilmiy asoslarga tayangan holda amalga oshirilishi ma'lum bir salbiy holatlarning yuzuga kelishini ham unutmash kerak;

– bizning dunyoqarashimiz, shart-sharoit, barkamol insonni voyaga yetkazishga qaratilgan qadriyatlarimizga to'la-to'kis mos kelmasligi mumkin, o'quv jarayonining faol sub'ekti hisoblangan professor-o'qituvchi va talabaning ham bu boradagi qarashlarini o'zgartirishimiz, mazkur tizim talablarini ularga singdirishimiz, o'ziga xos madaniyatni shakllantirishimiz darkor;

– mehnat bozori talabiga mos kadrlarni tayyorlash, raqobatda o'rnimizga, mavqeimizga ega bo'lishimiz lozimligini his qilishimiz lozim. Hozircha oldimizda bundan yaxshiroq yo'l ham, chunki barcha rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim muassasalari shu yo'l bilan borib yuqori natijalarga erishmoqda.

An'anaviy oliy ta'lim tizimining ta'lim samaradorligi yuqori bo'lmaganligi sababli, boshqa bir tizimga o'tish talab qilinadi. Har bir davlat rivojlanish jarayonida o'ziga mos tizimni yaratishi kerak yoki jahon miqiyosida tan olingan tizimlardan foydalanish kerak. Shunday ekan, yangilikka intilish, oliy ta'lim tizimini tubdan qayta isloh qilish bo'yicha boshlangan harakatlarni davom ettirish har tomonlama to'g'ri qarordir.

Shunday qilib, tadqiqot muammolari bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi asosiy g'oyalarni ajratib olishga imkon berdi:

1) ta'lim tizimimizning rivojlanishi va muvaffaqiyati bevosita kredit tizimiga bog'liq bo'lib qoldi;

2) kredit tizimi asosida o'z-o'zini boshqaruvchi, har qanday vaziyatda yo'l topa oladigan shaxsni shakllantirish;

3) har qanday sinovlardan cho'chimaydigan, sinov va tajribalar o'tkazishdan qo'rqmaydigan o'z-o'zini muttasil rivojlantirib boruvchi jamiyatni shakllantirish;

4) ta'lim oluvchilarning nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyot bilan integratsiyasi natijasida ularning o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish.

ADABIYOTLAR

- [1] *Ризаев Ш.* Истиклол фидойилари.
- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
- [3] *Уразгалиева, Р.И.* Роль методов активного обучения при кредитной системе / Р.И. Уразгалиева // Высшая школа Казахстана: науч.прил. Поиск, 2007. № 4. С. 48.
- [4] *Елагина В. С.* Формирование исследовательской компетенции в процессе профессиональной подготовки студентов педагогического вуза // Концепт. - 2012. - №8. - с. 37.
- [5] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.06.2017 yildagi 393-sonli qarori.
- [6] Глобализация образования: компетенции и система кредитов / ред. Ю. Рубин. М.: Маркет ДС, 2005. С. 46.
- [7] *Гребнев Л. С.* Многоуровневое профессиональное образование // Тезисы докладов совещания по проблемам развития многоуровневой системы подготовки специалистов в Российской Федерации 25-26 ноября 2002 г. М. : Финан. акад. при правительстве РФ. С.4.
- [8] *Вербицкий А. А., Ларионова О. Г.* Личностный и компетент-

- ностный подходы в образовании: проблемы интеграции: монография. М. : Логос, 2009. С. 34.
- [9] Зеер Э. Ф. Обновление базового профессионального образования на основе компетентностного подхода // Профессиональное образование. – 2007. – № 4. – С. 9.
- [10] Уразгалиева, Р.И. Преподаватель при кредитной системе обучения. // Инновационные технологии обучения и интерактивные методы в высших учебных заведениях: материалы республ. конф. Уральск: Западно-Казахстан. туманит, ун-т им. М.Утемисова, 2006. С. 188.
- [11] Уразгалиева, Р.И. Роль методов активного обучения при кредитной системе // Высшая школа Казахстана: науч.прил. Поиск, 2007. № 4. С. 48.
- [12] Уразгалиева, Р.И. Теоретические основы форми-рования умений самооб-разовательной деятельности в кредитно-модульной организации обучения: учеб.-метод. мат-лы. Оренбург: Детство, 2010. - 74 с.
- [13] Талызина Н. Ф., Печенюк Н. Т., Хихловский Л. Б. Пути разработки профиля специалиста. – Саратов: Изд-во Саратовского университета, 1987. – С. 73.
- [14] Хорешман, В. С. Теоретические аспекты исследования учебно-познавательной компетенции студентов// Ярославский педагогический вестник – 2015 – № 6 -С.8.

Поступила в редакцию 2.10.2022

Citation: *Murtazayeva U.I.* (2022). Oliy ta'lim muassasalarida kredit tizimi xususiyatlari. Raqamli texnologiyalarning nazariy va amaliy masalalari xalqaro jurnali. 2(2). – В. 53-61.

FEATURES OF THE CREDIT SYSTEM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

*Murtazaeva U.I.*¹

¹ Samarkand State Tashkent University named after Sharof Rashidov,
Samarkand, Uzbekistan
murtazayeva1982@yandex.ru

Abstract. *The article focuses on the main task of the modern education system - the introduction of a credit system of education. The differences between the credit system and the linear learning system, the features, advantages and problems of the introduction of the credit system, forms of control in traditional and credit learning systems are studied. Also, based on the analysis of scientific and methodological literature, it was possible to identify the main ideas of our research.*

Keywords: *education, credit education system, specialist, credit hour, ECTS system, score-rated and letter-rated assessment.*

ОСОБЕННОСТИ КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Муртазаева У.И.¹

¹Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова,
Самарканд, Узбекистан
murtazayeva1982@yandex.ru

Аннотация. *В статье акцентируется внимание на главной задаче современной системы образования - внедрении кредитной системы обучения. Изучены отличия кредитной системы от линейной системы обучения, особенности, преимущества и проблемы внедрения кредитной системы, формы контроля в традиционной и кредитной системах обучения. Также на основе анализа научно-методической литературы удалось выделить основные идеи нашего исследования.*

Ключевые слова: *образование, кредитная система образования, специалист, кредитный час, система ECTS, оценка по баллам и буквам.*